

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives.....	873
<b>J.G.Numanova</b>	
The role of podcasts and audiobooks in language education .....	877
<b>J.G.Numanova</b>	
The influence of technological advancements on language assessment methods .....	881
<b>O.Z.Dadajonov</b>	
XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini .....	885
<b>S.A.Yusupova</b>	
The evolution of politeness: a historical analysis of English novels .....	890
<b>N.M.Merganova, N.A.Orifjonova</b>	
Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari .....	894
<b>G.A.To'lanboyeva</b>	
Muloqot va uning xususiyatlari .....	898
<b>S.A.Xaqnazarov</b>	
Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi .....	901
<b>N.M.Merganova</b>	
Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari .....	905
<b>C.X.Azimova</b>	
Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах .....	908
<b>N.A.Komilova</b>	
The representation of gender in English idiomatic expressions .....	911
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati .....	915
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar .....	919
<b>S.To'lanov</b>	
Turistik diskursning matnda ifodalanishi .....	923
<b>S.To'lanov</b>	
Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv .....	927
<b>Y.U.Abdurazzakov</b>	
Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi .....	931
<b>I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova</b>	
Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari .....	934
<b>D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova</b>	
Challenges in translating Uzbek literature to English .....	938
<b>D.S.Usmonova, N.R.Rajabova</b>	
Using ai in the field of studying english as a second foreign language .....	942
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi .....	946
<b>S.A.Xaqnazarov</b>	
Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana .....	949
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon yasovchi affikslaming o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari .....	953
<b>G.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
O'zbekiston va Germaniyada ta'limi tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi .....	957
G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi .....	961
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi .....	966
<b>S.I.Quziyev</b>	
Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalinish .....	970
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi .....	975
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
About the term of persuasion .....	979



## MULOQOT VA UNING XUSUSIYATLARI

## КОММУНИКАЦИЯ И ЕЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

## COMMUNICATION AND ITS FEATURES

To'lanboyeva Gulسانамхон Азизжон qizi 

Farg'ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti o'qituvchisi

*Annotatsiya*

Insoniyat yaralganidan beri o'zaro ma'lumot almashish, qabul qilish, uni qayta ishlab, uzatish kabilalar uning eng dastlabki ehtiyojlardan sanaladi. Muloqot tufayli insoniyat o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'ladi, jo'natadi, his-tuyg'ularini ifoda etadi. Bundan tashqari muloqot vositasida inson ilmiga ega bo'ldi. Ushbu ilmlar tarixini va rivojlanish jarayonini o'rganish uchun tilshunoslikda muloqot tushunchasi alohida tadqiq va tahlil etilmoqda. Qator tilshunos olimlar ushbu sohada ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar va bu jarayon davom etmoqda. Quyidagi maqolada yuqoridagi imiy ishlarning davomi sifatida muloqot tushunchasi va uning xususiyatlariiga to'xtalib o'tiladi.

*Аннотация*

С момента создания человечества взаимный обмен информацией, ее прием, обработка и передача являются одними из самых основных его потребностей. Благодаря общению человечество получает необходимую ему информацию, отправляет ее и выражает свои чувства. Кроме того, люди приобретали знания посредством общения. В целях изучения истории и процесса развития этих наук отдельно исследуется и анализируется понятие коммуникации в лингвистике. Ряд лингвистов провели большую научно-исследовательскую работу в этой области, и этот процесс продолжается. В следующей статье, как продолжение вышеизложенных работ, будет рассмотрено понятие коммуникации и ее характеристики.

*Abstract*

*Since the creation of humanity, mutual exchange of information, reception, processing and transmission are among its most basic needs. Thanks to communication, humanity gets the information it needs, sends it, and expresses its feelings. In addition, people acquired knowledge through communication. In order to study the history and development process of these sciences, the concept of communication in linguistics is being separately researched and analyzed. A number of linguists have conducted a lot of scientific and research work in this field, and this process continues. In the following article, as a continuation of the above works, the concept of communication and its characteristics will be discussed.*

**Kalit so'zlar.** Muloqot, nutq, yozuv, aloqa, xabar, jo'natuvchi, qabul qiluvchi, kodlash, kanallar, media.

**Ключевые слова.** Коммуникация, речь, письмо, общение, сообщение, отправитель, получатель, кодирование, каналы, средство массовой информации.

**Key words.** Communication, speech, writing, communication, message, sender, receiver, coding, channels, media.

**KIRISH**

Bugunning rivojlangan davrida ilm-fan rivojlanib, takomillashib borgan sari yana yangi va yangi savollar paydo bo'lmoxda. Shulardan biri tilshunoslik sohasida. Muloqot va uning turlari, uni ifodalovchi unsurlar ustida qizg'in bahs yurtilmoxda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojidir. Turli darajada rivojlangan hayvonlar va odam turmush tarzlarining ikki taraf: tabiat bilan aloqalar va tirik jonzotlar bilan aloqalarga ajralishini kuzatamiz. Shu bilan bir qatorda inson muloqoti turlari, uni qanday usulda ifodalanishi, muloqotning o'zaro jinslar o'rtasidagi tafovuti, verbal va noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar tahlil qilinadi.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Birinchi tur aloqalar odam faolligining maxsus turi sifatidagi faoliyat deb nomlangan. Ikkinci tur aloqalar bir-birlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi tomonlar axborot almashinuvchi tirik jonzotlar

## TILSHUNOSLIK

ekanligi bilan belgilanadi. Tur ichidagi va turlararo bunday aloqalar turi muloqot deb ataladi. «Muloqot» tushunchasining turlicha ta'riflari mayjud.

“Muloqot-bu ikki yoki undan ortiq odam tomonidan fikrlar, g'oyalar yoki his-tuyg'ular almashinuvni.” - **Nyuman va Summer.**

“Muloqot - bu nutq, yozuv yoki belgilar orqali fikr almashish, uni yetkazish, bilim berish, ulashish anglanadi”. - **Oksford ingliz tili lug'ati.**

“Muloqot-bu bir shaxsning boshqa shaxs bilan aloqa o'rnatish va uni tushunish qobiliyatidir.” - **Jon Adur.**

“Muloqot- bu so'zlar, harf belgilari yoki xabarlar orqali aloqa qilib, natijada anglashilgan ma'no va tushunchaniulashish usulidir.” - **Koontz va O' Donnell.**

Har qanday aloqa, muloqot jarayonida uchta narsa eng muhim va ular **jo'natuvchi, qabul qiluvchi va xabar** (ma'lumot)<sup>32</sup>. Shuningdek, bundan tashqari bir nechta qo'shimcha elementlar mavjud va quyida ularni birma – bir yoritib o'taman. Muloqot shubxasiz ma'lumotsiz mavjud emas, u ma'lumot, manba asosiga quriladi. Lekin shu ma'lumot kimdir tomonidan yetkazilishi, jo'natilishi lozim. Bu yetkazuvchi shaxs xabarni “manzil”iga yetkazadi. O'z navbatida u jo'natilgan ma'lumot, xabar ma'lum bir “manzil”da qabul qiluvchi tomonidan qabul qilinishi lozim. Quyidagicha uchlik buni yaqqol ifodalaydi:

1 – ilova.

Muloqot

Muloqot quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi: xabar yoki malumot, jo'natuvchi va qabul qiluvchi.

1. Jo'natuvchi.

Muloqotning bu elementi kim? U qanday funksiyani bajaradi? Ma'lumotni jo'natadigan shaxs yoki yuboruvchi. Ya'ni u xabarni yaratadi va uni qabul qiluvchiga yetkazadi. Shu bilan birga, odatda xabarni jo'natuvchi shaxs muloqotni boshlaydigan kishi hamdir. Yuboruvchi xabarni ovozli, yozma yoki har qanday belgilar ko'rinishida kodlaydi. Shu kodga asoslanib, muloqot bir necha turlarga bo'linadi va unga quyida to'xtalib o'taman.

2. Xabar.

Bu g'oya, ma'lumot, fikr, fakt, ba'zida tuyg'ular ifodasi va hokazolar bo'lib, bu jo'natuvchi tomonidan yaratiladi va xabar berish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Ushbu xabar yuqorida ta'kidlaganimdek ma'lum bir ko'rinishda kodlangan bo'ladi. Axborot dolzarb va miqdor jihatdan yetarli, oson va tushunarli, hamda ma'lum maqsadga ega bo'lishi kerak.

3. Qabul qiluvchi.

U zanjirdagi oxirgi bo'lgan, jo'natuvchi tomonidan xabar yuboriladigan va muloqotni yakunlovchi yoki keyingi bosqichga o'tkazuvchi shaxs. Qabul qiluvchi xabarni qabul qilib, uni to'g'ri nuqtai nazardan tushunib, xabarga muvofiq harakat qilgandan so'ng, shundan keyingina aloqa maqsadi muvaffaqiyatlari bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, har doim ham qabul qiluvchi ma'lumotni xuddi jo'natuvchi qay maqsadni nazarda tutib jo'natganini anglamasligi va shu tufayli anglashilmovchilik paydo bo'lishi mumkin. Ushbu uch tarkibiy qism, avval ham ta'kidlanganidek muloqotning eng muhim omillari sanaladi. Butun boshli jarayonni shakllantiradilar, hamda qabulq iluvchining qay yo'sinda qabul qilishi, to'liq tushunishi, qisman yoki mutlaqo tushunmasligining asosiy omili jo'natuvchi xabarni noto'g'ri yoki muvofiq bo'limgan yo'sinda yetkazishidadir. Agar risoladagidek ma'lumot uzatilib, munosib qabul qilinsa muloqotning vazifasi to'liq amalga oshgan hisoblanadi.

Muloqot tahlili haqida so'z yuritilar ekan, ushbu mavzudagi aurim nazariyalarga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Ulardan biri Shannon nazariysi<sup>33</sup> bo'lib, unga ko'ra muloqot jarayoni quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Boshlanish - nazariyada aytishicha, muloqotning boshlanishi xabar jo'natuvchining ongida paydo bo'ladigan g'oyalar yoki ushbu g'oyalarga turtki bo'luvchi stimuldan kelib chiqadi. U uni xabar shaklida yuboradi.

2. Xabar yuboruvchi, uzatuvchi- u xabarni so'zlash, yozish, turli xil signallar orqali boshlaydi. Muloqotni boshlashi va xabar yuborishidan aniq maqsadi bo'lishi va bu maqsad

<sup>32</sup><https://www.toppr.com/guides/business-studies/directing/communication/>

<sup>33</sup><https://www.economicsdiscussion.net/business-communication/communication-theory/33598>

tinglovchi yoki qabul qiluvchining ehtiyojiga ham muvofiq bo'lishi lozim. Shuningdek, u axborotni uzatish munosib vosita tanlab, albatta izoh olish uchun harakat qilishi kerak.

3. Kodlash (encoding) – xabarni uzatish uchun, jo'natuvchi tomonidan so'zlar, harakatlar, turli rasmlar va hokazolarga aylantirib kodlanadi.

4. Kanallar – aloqani amalga oshirish uchun xabar kanal deb nomlanadigan ma'lum vositalar orqali yuboriladi. Misol uchun, pochta, telefon, faks va shu kabilar.

5. Media - bu kodlangan xabarni uzatish ko'rinishi. Xabar og'zaki, yozma, video, rasm, signal ko'rinishida uzatilishi mumkin. Ma'lumot qanday uzatilsa qabul qiluvchi uni xuddi shunday shaklda qabul qiladi. Qaysi birini tanlash esa jo'natuvchining ixtiyorida.

6. Qabul qiluvchi- u xabarni qabul qiluvchi shaxs bo'lib, uni bir nechta usulda: eshitish, o'qish yoki ko'rish orqali oladi. U ham o'z navbatida qabul qilingan xabarni, tushunishi, to'g'ri talqin qilishi, munosib javob qaytarishi va o'z fikrini bildirishi lozim.

7. Kodni ochib, ma'lumotni qabul qilish(decoding) - qabul qiluvchi xabarning nazarda tutilgan ma'nosini tushunishga harakat qiladi.

8. Harakat-qabul qiluvchi xabarni tushunib, unga muvofiq harakat qiladi.

9. Izoh, sharh - qabul qiluvchi jo'natuvchiga xabarni olganligini va uni tushunganligini tasdiqlagandan so'ng, ushbu ma'lumotga nisbatan o'zining munosabatini fikr – mulohazalar orqali ifodalaydi va shu tarzda aloqa jarayoni tugallanadi.<sup>34</sup> Shu tarzda ma'lum bir muloqot jarayoni amalga oshadi.

O'z navbatida bu o'rinda bir qator **muloqot vazifalari** ham mavjud bo'lib, L. A. Karpenko<sup>35</sup> taklif etgan tasnifga ko'ra quyidagilar ajratiladi:

— aloqa o'rnatish vazifasi — suhbatdoshni aloqaga kirishish uchuntayyorlash;

— informatsion vazifa — suhbatdosh bilan muayyan ma'lumotlar,fikrlar va rejalami almashish;

— faoliyatga undash — suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimullahtirish (rag'batlantirish);

— koordinatsion vazifa — suhbatdosh bilan hamkorlikdagifaoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishdagi harakatlarni muvofiqlashtirish;

— tushunishni ta'minlash vazifasi — suhbatdoshning fikrlari vahissiyotlarini tushunish;

— amotiv vazifa — suhbatdoshda muayyan hissiyotlarni uyg'otish hamda ularni o'zgartirish;

— munosabat o'rnatish vazifasi — munosabatlar tizimidagi shaxsiy o'rinni, mavqeni aniqlash;

— ta'sir ko'rsatish vazifasi — suhbatdoshning xulq-atvori, shaxsiy xususiyatlari, maqsadlarini o'zgartirish.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inson mavjud ekan muloqot ham barhayot bo'lib, takomillashib, kamol topib boraveradi. Bashariyat jamiyatida neki rivojlanib borsa, u albatta diqqat markazida bo'lib qator savollar vujudga kelaveradi. O'z navbatida muloqot ham shular jumlasidandir. Inson nutqi, uning uning yosh, millat, jins nuqtayi nazaridan turfa hamda o'ziga xos jihatlari mavjud ekani tadqiq etib borilaveradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston", 2022
- Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol»nashriyoti, 2006.— 119 b
- Mirzayeva, D. (2019). The concept of "friendship" in uzbek and english linguistic culture. Мировая наука, (11 (32)), 29-32.
- To'lanboyeva G.A. Tilning gender xususiyatlari tadqiqi. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES. International scientific-online conference
- <https://www.economicsdiscussion.net/businesscommunication/communication-theory/33598>
- <https://www.toppr.com/guides/business-studies/directing/communication/>

<sup>34</sup> <https://www.economicsdiscussion.net/business-communication/communication-theory/33598>

<sup>35</sup> M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol»nashriyoti, 2006.— 119 b